



Nurmuhammad SHAYDULLAYEV,
Toshkent islom instituti magistranti
E-mail: n.shaydullaev@mail.ru

FarDU katta o'qituvchisi, PhD F.Mirzayeva taqrizi asosida

TAVHIDNI TAQSIMLASH BOTIL E'TIQOD SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada tavhid tushunchasining mohiyati va uni qismlarga ajratish masalasi ahli sunna aqidasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada tavhidning lug'aviy va istilohiy ma'nolari yoritilib, ulamolarning ushbu masalaga oid qarashlari manbalar asosida bayon etiladi. Shuningdek, ayrim oqimlar tomonidan tavhidni rububiyat, uluhiyat hamda ism va sifatlar kabi qismlarga ajratish haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada bunday taqsimotning tarixiy kelib chiqishi hamda uning aqidaviy talqinlari muhokama qilinadi. Ahli sunna ulamolari nazarida tavhid yagona va yaxlit e'tiqodiy tushuncha ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tavhid, rububiyat tavhidi, uluhiyat tavhidi, ism va sifatlar tavhidi, ahli sunna aqidasi, tavhid taqsimoti.

РАЗДЕЛЕНИЕ ТАУХИДА – ОШИБОЧНОЕ ВЕРОУБЕЖДЕНИЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается сущность понятия таухида и вопрос его разделения с точки зрения вероубеждения ахлю-сунна. Освещаются лексическое и терминологическое значения таухида, а также на основе источников излагаются взгляды ученых по данному вопросу. Кроме того, анализируются представления некоторых течений о разделении таухида на рубубийя, улухийя, а также на имена и атрибуты. В статье обсуждаются исторические предпосылки такого разделения и его догматические интерпретации. Обосновывается, что с точки зрения ученых ахлю-сунна таухид является единым и целостным вероубеждением.

Ключевые слова: таухид, таухид рубубийя, таухид улухийя, таухид имен и атрибутов, вероубеждение ахлю-сунна, разделение таухида.

THE DIVISION OF TAWHID AS A MISGUIDED BELIEF

Annotation

This article examines the essence of the concept of Tawhid and the issue of its division from the perspective of the Ahl al-Sunnah creed. It explains the lexical and terminological meanings of Tawhid and presents the views of scholars on this issue based on classical sources. The study also analyzes the perspectives of certain groups that divide Tawhid into categories such as Rububiyyah, Uluhiyyah, and the names and attributes of God. The historical origins of this classification and its doctrinal interpretations are discussed. From the viewpoint of Ahl al-Sunnah scholars, Tawhid is substantiated as a unified and integral doctrinal concept.

Keywords: Tawhid, Tawhid al-Rububiyyah, Tawhid al-Uluhiyyah, Tawhid of names and attributes, Ahl al-Sunnah creed, division of Tawhid.

Kirish. So'nggi asrlarda Islom ummati "soxta salafiylik"dan ko'ra xatarliroq baloga yo'liqani yo'q. "Salafi solihlar"ga ergashishni da'vo qilgan, biroq voqe'likda amallari da'vosiga zid bo'lgan ushbu toifa minglab musulmonlarni sof Islom aqidasi bilan chalg'itdi. Mazkur toifaning "Biz salaf ulamolarning izdoshlarimiz, dinga ularning tushunchalariga ko'ra amal qilamiz" deya aytayotgan so'zlari aslida "كلمة حق يراد بها باطل" ya'ni "Haq so'z, ammo u ila botil iroda qilingan" qabilidir. Chunki ular Qur'on va Sunnatni tushunishda haqiqiy salaf ulamolarga emas, balki o'zlarining "salaf" deb bilgan Ibn Taymiya va Muhammad ibn Abdulvahhobga ergashadilar. "Soxta salafiylik"ning botil e'tiqodlari musulmonlar ommasiga ma'lum va mashhurdir. Quyida ularning xatarli e'tiqodiy qarashlaridan biri – "tavhid taqsimoti" masalasida so'z yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tavhidning ta'rif, haqiqati va ahli sunna ulamolari ushbu tushunchaning ma'nosi haqidagi qarashlari. Ma'lumki, tavhid – yakkaxudolik bo'lib, Alloh taoloni zoti, O'ziga xos sifatlari va fe'llarida hech qanday sherigi yo'q, yagona deb e'tiqod qilish hamda ibodatning barcha turlarini xolis U Zot uchun ado etishdir.

Alloma Ali ibn Muhammad Sayyid Sharif Jurjoni "Mu'jam at-ta'rifat" asarida "tavhid"ga quyidagicha ta'rif bergan: التوحيد : في اللغة : الحكم بأن الشيء واحد والعلم بأنه واحد ، وفي اصطلاح أهل الحقيقة : تجريد الذات الإلهية عن كل ما يتصور في الأفهام ، ويتخيل في الأوهام التَّوْحِيدُ : ثلاثة أشياء : معرفة الله تعالى بالربوبية، والإقرار بالوحدانية ، والأذهان. ونفى الأنداد عنه جملة.

Tavhid lug'atda bir narsani yagona deb hukm qilish va uni yagona deb bilishdir. Haqiqat ahli istilohida esa Ilohiy Zotni aqlda tasavvur qilinadigan va xayolda gavdalanadigan har qanday tushunchalardan poklab, Uni yagona deb e'tirof etishdir. Tavhid — uch narsani ya'ni, Alloh taoloni Rob deb bilish, Uning yagona ekanligiga iqrar bo'lish, O'xshashi borligini butunlay inkor etishni o'z ichiga oladi[1].

Alloma Muhammad Aliy Tahonaviy rohimahulloh esa "Kashshaf istilohati al-funun va al-ulum" asarida:

وفي عبارة العلماء اعتقاد وحدانيته تعالى هو لغة جعل شيء واحدا

"Tavhid lug'aviy jihatdan bir narsani yagona deb bilishni anglatadi. Ulamolarning istilohida esa Alloh taoloni yagona deb e'tiqod qilishdir"[2] deganlar.

Demak tawhid Alloh taoloni zoti, sifatlari va barcha fe'llarida hech qanday sherigi yo'qligiga qat'iy e'tiqod qilish, shuningdek, yaratish va butun borliqni boshqarishda ham faqat U Zot yagona ekanini tan olishdir. Ahli sunna ulamolari nazarida tawhid aynan shu ma'nolarning barchasini o'z ichiga olgan yaxlit tushuncha bo'lib, u alohida-alohida qismlarga bo'linmaydi. Shuning uchun kimda ushbu ma'nolar to'liq ravishda mujassam bo'lsa, u mo'min sanaladi. Agar bu mazmunlardan birortasi mavjud bo'lmasa, unda tawhid mukammal tarzda qaror topgan bo'lmaydi.

Abulmu'in Nasafiy (rahimahulloh) "Bahr ul-kalom" asarida:

..... وعن جعفر الصادق رضي الله عنه أنه قال : التوحيد ثلاثة أحرف

Ya'ni, Ja'far as-Sodiq (roziyallohu anhu): "Tavhid – (Alloh taolo haqida) uch xil tushunchadir..." deganlar[3].

Bu jumalalar ahli sunna ulamolarning tavidini Alloh taoloni zoti, sifatlari va fe'llarida mutlaqo o'xshashi yo'q deb e'tiqod qilish borasidagi yaxlit tushuncha deb bilishlariga yorqin dalildir.

2.Soxta salafiyarning tavid taqsimoti borasidagi qarashlari. Soxta salafiyar qarashiga ko'ra esa tavidni uchga bo'linadi:

1-Rububiyat tavid – Allohning yolg'iz o'zini Robb deb bilish, yaratish, mulk va boshqaruvda yagona deb e'tiqod qilish;

2-Uluhiyat tavid – Allohning yolg'iz o'zini iloh deb bilish, yolg'iz Allohgagina ibodat qilish, taotlarda sherigi yo'q deb e'tiqod qilish;

3-Ism va sifatlar tavid – Allohni ism va sifatlarini ham yolg'iz o'zigagina sobit deb bilish, oyat va hadislarida kelgan har qanday sifatni Allohning haqiqiy ism va sifati deb e'tiqod qilish.

Ularning qarashiga ko'ra, tavidning bu tarzda taqsimlanishi yangi paydo bo'lgan ilmiy atama emas, balki shar'iy manbalarga asoslangan taqsimot hisoblanadi. Ya'ni ular rububiyat tavid bilan uluhiyat tavidni shar'iy dalillar asosida bir-biridan farqlaydi va bu ikki tushuncha turli ma'nolarni anglatadi, deb ta'kidlaydi. Shu bois ular inson bir jihatdan rububiyat tavidini e'tirof etgan holda mo'min bo'lishi, ammo uluhiyat tavidini buzgan holda mushrik bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari suradilar. Natijada esa bir shaxsga nisbatan bir vaqtning o'zida ikki qarama-qarshi hukm, mo'minlik va shirk qo'llanilgan bo'lib chiqadi.

Biroq aqida va tavidga oid ishonchli manbalarni o'rgangan kishi Islom tarixi davomida tavidni aynan shu tarzda qismlarga ajratib talqin qilish faqat "soxta salafiyar" tomonidan ilgari surilganini ko'rish mumkin. Chunki salaf ulamolari nazarida inson yoki tavidga to'liq e'tiqod qilgan mo'min bo'ladi, yoki uni inkor etgan mushrik bo'ladi. Shu sababli "soxta salafiyar" ta'kidlaganidek, bir kishi bir vaqtning o'zida rububiyat tavidida mo'min, uluhiyat tavidida esa mushrik bo'lishi mumkin degan qarash salaf aqidasi muvofiq kelmaydi.

Ushbu botil e'tiqodni qisqacha bayoni quyidagicha: "Mushriklarda rububiyat tavid borasida mukammal imon mavjud bo'lgan, ya'ni ular Alloh taoloni boshqarish, naf va zarar berish kabi amallarida yagonaligiga qat'iy ishonch bilan e'tiqod qilganlar. Biroq ular musulmon hisoblanmagan. Chunki ular uluhiyat tavid topilmagan, ya'ni ular o'zlari bilan Alloh taolo o'rtasida vositachilarni yaratish va ulardan so'rashda shirkka yo'l qo'yganlar. Payg'ambarlar o'z qavmlari bilan rububiyat tavid borasida qarama-qarshilikka bormaganlar, chunki bu borada shirk keltiruvchilar juda oz bo'lib, insonlar orasida deyarli uchramagan[4]. Ularning asosiy maqsadi – insonlarni uluhiyat tavidga, ya'ni ibodatning barcha turlarini xolis Alloh uchun ado etishga chaqirish bo'lgan" deyishadi.

Yuqoridagi tushunchalaridan kelib chiqib ular Payg'ambarlar va avliyolarni vasila qiladigan, ulardan shafao kutadigan va musibat paytida ularga nido qiladigan insonlarni mazkur amallari sabab Payg'ambarlar va avliyolarga ibodat qilishda ayblab, o'z qarashlariga binoan ularni uluhiyat tavidni tark etganliklari uchun kofir deb bilishardi. Ularning fikricha, bu holat qabrlarni ziyorat qilayotgan, avliyolar ila vasila qilayotgan odamlarga ham tegishli. Shu bilan ular musulmonlarning katta qismini uluhiyat tavidga rioya qilmaganlik bahonasi bilan kofir deb e'lon qilishgacha borishdi.

Natijalar va muhokama. Ulug' avliyolar va solih zotlarning qabrlari oldida qilingan duolarning ijobat bo'lishi ko'p asrlar davomida ixlosli mo'min-musulmonlar tajribasida o'z tasdig'ini topib kelayotgan holat sifatida qaraladi. Shu sababli ham qabrlarni ziyorat qilish odati keng tarqalgan. Bunday holatda mo'min kishi to'g'ridan-to'g'ri Alloh taologa duo qiladi va U Zotdan so'raydi.

Biroq ayrim botil qarash tarafdorlari tavassul va istig'osa kabi masalalarda o'zlari bilan bir xil fikrda bo'lmagan musulmonlarni kufirda ayblash bilan kifoyalanmay, hatto ularga

qarshi qurolli kurash olib borishni ham vojib deb hisoblash darajasiga borib yetganlari afsus bilan qayd etiladi.

Shuningdek tavidni rububiyat va uluhiyat kabi qismlarga ajratish g'oyasi Islom tarixining dastlabki davrlarida mavjud bo'lmagan. Xususan, Ibn Taymiyyadan oldin ulamolarning tavidni bu tarzda bo'lib talqin qilmaganlari aytiladi. Shuningdek, Muhammad alayhissalom islomga kirayotgan kishilardan rububiyat yoki uluhiyat tavidni alohida bilishni talab qilmaganlari, sahobalar, tobe'inlar va taba' tobe'inlar ham tavidni bunday shaklda uch qismga ajratmaganlari ta'kidlanadi.

3.Tavidni taqsimlagan ba'zi ahli sunna ulamolari va soxta salafiyarning qarashlari o'rtasidagi farqlar. Shu o'rinda masalaning yana bir muhim jihatiga e'tibor qaratish zarur. Yuqorida ta'kidlanganidek, ahli sunna ulamolari tavidni bir necha ma'nolarni o'z ichiga olgan yagona va yaxlit tushuncha sifatida talqin qilganlar. Biroq ayrim hollarda ba'zi ahli sunna ulamolarning aqidaga oid asarlarida ham tavidni turli iboralar orqali taqsimlab bayon qilish holatlari uchrab turadi. Bu iboralar ba'zan "soxta salafiyar" ishlatgan atamalarga o'xshash ko'rinishi mumkin.

Ammo bu holat ulamolarning mazkur masalada ular bilan to'liq hamfikir bo'lganini anglatmaydi. Chunki ahli sunna ulamolari tomonidan qo'llangan bunday taqsimotlar asosan tushuntirish va bayon qilish usuli sifatida ishlatilgan bo'lib, tavidni mustaqil qismlarga ajratib hukm chiqarish maqsadini ko'zlamagan. Ya'ni ular tavidni aslida yagona tushuncha deb bilgan holda, uning turli jihatlarini izohlash uchun ba'zan alohida-alohida bayon qilganlar.

Soxta salafiyar talqinida esa bu taqsimot aqidaviy hukm chiqarish mezoniga aylantiriladi. Natijada ular rububiyat va uluhiyat tavidni bir-biridan mustaqil tushunchalar sifatida talqin qilib, inson rububiyatda mo'min bo'lib turib, uluhiyatda mushrik bo'lishi mumkin degan xulosaga keladilar. Ahli sunna ulamolari esa bunday qarashni qabul qilmaydi, chunki ularning nazarida tavidning barcha ma'nolari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ajralmas holda mavjuddir.

Masalan, Abu Abdullah Muhammad ibn Abul Fazl al-Bakkiy o'zining "Tahrir al-matolib" asarida tavidni bayon etishda ayrim jihatlarini alohida ko'rsatib o'tadi. Biroq bu taqsimot tavidni mustaqil qismlarga bo'lib, ularga alohida hukm berish maqsadida emas, balki uning mazmunini kengroq va aniqroq tushuntirish uchun ishlatilgan. Shuning uchun bunday taqsimotni keyinchalik paydo bo'lgan qat'iy aqidaviy bo'linishlar bilan tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi.

Demak, masalaning mohiyati shundaki, lafz jihatidan o'xshashlik bo'lishi mumkin, ammo ma'no va natija jihatidan katta farq mavjud. Ahli sunna ulamolari tavidni yagona va ajralmas e'tiqod sifatida ko'rganlar, ularning bayonlari esa faqat ilmiy sharh va tushuntirish maqsadiga xizmat qilgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Abul Fazl al-Bakkiy "Tahrir al-matolib" asarida:

أقسام توحيد الألوهية، وتوحيد الأفعال، وتوحيد: والتوحيد على أربعة الصفات، وتوحيد الذات.

"Tavid to'rt qismga bo'linadi, ular: tavid al-uluhiyya, tavid al-af'al, tavid as-sifat va tavid az-zot"[5] deganlar.

Demak muammo taqsimotda emas. Zero ko'plab ulamolarning tavidni taqsimlagani ma'lumdir. Abdulloh ibn Abdurrohman al-Makkiy aytadi:

نقول هناك من رأى أن التوحيد ينقسم إلى ربوبية وإلهية وأسماء وصفات وله في أصل التقسيم شواهد معتبرة ستجدها في هذه الرسالة إلا أنه في تفسيره وبيانه لهذه الأقسام خلط وخطب وأدخل في التوحيد ما ليس منه

"Shu o'rinda aytamizki, kim tavidni rububiyat, uluhiyat va ismlar-sifatlar kabi qismlarga bo'linadi deb bilsa, uning mazkur taqsimot borasida asosli dalillari bor. Ushbu risolada bu dalillarni topishingiz mumkin. Biroq, bu taqsimotning sharhi va izohida chigallik va chalkashliklar yuzaga kelgan bo'lib, natijada tavidga aslida unga aloqador bo'lmagan narsalar ham kiritilgan"[6] deganlar.

"Fatava al-aqiyda al-islamiyya" asarida esa:

وعليه فإن تقسيم التوحيد في مقام التعليم والتفهيم وإيضاح المعاني لا محذور فيه، أما تقسيمه بطريقة تجعل المشركين مؤمنين بالربوبية؛ فهو أمر مخالف لما ثبت قطعاً في القرآن الكريم، وتزداد خطورته إذا كان أصلاً في تكفير بعض المسلمين بحجة إنكارهم للربوبية من خلال مسائل فقهية فرعية؛ كالنوسل والاستغاثة والتبرك بالصالحين،

وغيرها من المسائل التي لا يخرج الخلاف فيها عن دائرة الفقه الإسلامي المنضبط الذي يجمع ولا يفرق، والله تعالى أعلم.

“Shunga ko'ra, tavhidni ta'lim, tushuntirish va ma'nolarni izohlash maqsadida taqsimlashda hech qanday e'tirozga o'rin yo'q. Biroq bu taqsimot mushriklarni rububiyatga e'tiqod qiluvchi mo'minlar sifatida tasvirlashga olib kelsa, bu Qur'onda qat'iy ravishda sobit bo'lgan haqiqatga zid ishdir. Agar (mazkur taqsimot) tavassul, istig'osa va solihlardan tabarruklanish kabi ayrim far'iy fiqhiy masalalardan kelib chiqib, rububiyat tavidini inkor qilishganligi vaji bilan ba'zi musulmonlarni takfir qilishga asos qilib olinsa xatari yanada ziyoda bo'ladi. Holbuki, bu masalalar(tavassul, istig'osa va solihlardan tabarruklanish)da ixtilof qilish ajratmaydigan balki birlashtiradigan qilib tartiblangan islom fiqhi doirasidan chiqarib yubormaydi. Vallohu a'lam"[7]. Demak taqsimotning o'zida hech qanday muammo yo'q. Zero Qur'oni karim oyatlari ham sarohatan bo'lmasada, ishoratan bunga dalolat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tavid Alloh taoloni zoti, sifatleri va barcha fe'llarida mutlaq yagonaligiga e'tiqod qilish, shuningdek, yaratish va butun borliqni boshqarishda faqat U Zot yagona ekanini tan olishdan iboratdir. Ahli sunna ulamolari nazarida tavid ana shu ma'nolarning barchasini o'zida

mujassam etgan yaxlit aqidaviy tushuncha bo'lib, u alohida qismlarga ajratilmaydi.

Tavidni qismlarga ajratish masalasiga kelsak, ayrim qarashlarga ko'ra bu taqsimot keyingi davrda paydo bo'lgan bo'lib, u salaf ulamolardan bunday shaklda bayon qilinmagan. Ta'kidlanishicha, Ibn Taymiyya dan oldingi davrda ulamolardan tavidni aynan uning talqinidagi kabi qismlarga ajratib ta'riflamaganlar.

Shu bilan birga, tavidni ta'lim berish, tushuntirish yoki ma'nolarini izohlash maqsadida ayrim jihatlarga ajratib bayon qilishning o'zida e'tirozga o'rin yo'q. Biroq bu taqsimot noto'g'ri talqin qilinib, chalkashliklar keltirib chiqarilsa, tavidga aslida aloqador bo'lmagan masalalar ham unga qo'shib yuborilsa yoki ayrim far'iy fiqhiy masalalar sababli musulmonlarni rububiyat tavidini inkor etganlikda ayblab takfir qilishga asos sifatida ishlatilsa, bu jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Demak, ayrim oqimlar bilan ahli sunna ulamolari o'rtasidagi asosiy qarama-qarshilik ham aynan shu nuqtada, ya'ni tavidni tushuntirish usuli sifatida bayon qilish bilan uni aqidaviy hukm chiqarish vositasiga aylantirish o'rtasidagi farqda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Ali ibn Muhammad Sayyid Sharif Jurjoniy. Mu'jam at-ta'rifat. Muhammad Siddiq Minshavi tahqiqi. – Qohira: Dor al-faziyla. – B. 62.
2. Muhammad Ali Tahonaviy. Kashshaf istilohati al-funun va al-ulum. – Bayrut: Maktaba al-Libnon. 1-juz. 1-bosma. 1996-y. – B. 528.
3. Imom Maymun ibn Muhammad Nasafiy. Bahrul Kalom. – Damashq: Maktaba Dor al-Farfur. 2-bosma. 2000-y. – B. 117-118.
4. Usmon Mustafo Nobulsiy. Ar-ru'yatul Vahhabiyya littavhiyd va aqsamihi. – Urdun: Dor an-nur al-mubiyn. 1-bosma. 2017-y. – B. 11.
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Abul Fazl al-Bakkiy. Tahrir al-matolib. – Bayrut: Muassasa al-ma'arif.
6. Abdulloh ibn Abdurrahmon al-Makkiy. Taqsiymut tavid fiy al-miyzan. – Ummon: Dor an-nur al-mubiyn. 2017-y. 1-bosma. – B. 6.
7. Dor al-ifto al-a'm. Fatava al-aqiya al-islamiyya. – Ummon: Dor al-ifto. 2023-y. 1-bosma. – B. 86.